



NEMIS TILIDA ASPEKTUALLIK-ZAMON IFODASI

Zoirov Alisher

O'zbekiston Milliy universiteti

olmos1978@inbox.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19396033>

Kalit so'zlar: aspektuallik, zamon kategoriyasi, tugallanganlik, tugallanmaganlik, nemis tili

Mazkur maqolada nemis tilida aspektuallik va zamon munosabatlarini ifodalovchi til vositalari tahlil qilinadi. Tugallanganlik va tugallanmaganlik ma'nolarining morfologik, leksik va sintaktik ifodalanishi yoritilib, fe'l zamoni bilan gap zamoni o'rtasidagi farq asoslanadi. Tadqiqot natijalari chet tillarni o'qitish amaliyoti uchun ahamiyatlidir.

Zamon (payt) munosabatlarini voqelik sifatida lingvistik jihatdan tadqiq qilish natijasida mazkur fenomenning nihoyatda murakkab ekanligi ayon bo'ladi. Paytning lisoniy in'ikosini tasavvur qilish orqali mazkur voqelikni ifodalovchi til belgisining naqadar mazmunga boy ekanligini kuzatish mumkin.

Turli tillarda mavjud bo'lgan tugallanganlik yoki tugallanmaganlik (aspektuallik) kategoriyasi munosabatlarini ifodalovchi til vositalarining kognitiv xususiyatlarini chog'ishtiruv asosida o'rganish hozirgi kunda tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Nemis tilidagi aspektuallik kategoriyasi munosabatlarini ifodalovchi til vositalari turli kognitiv shakllar hosil qiladi va shu asosda tadqiqot uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur kognitiv shakllarning xususiyatlari tillarni chog'ishtirish natijasida yanada ayon bo'laveradi.

Nemis tili ana'naviy grammatikasining morfologiya qismida tugallanmagan ish-harakat ifodasi aniq, takrorlanuvchi va odatiy turda bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Mazkur munosabatlar fe'lning aspektuallik kategoriyasi to'g'risidagi bo'limda yoritiladi. Zamon kategoriyasi to'g'risidagi bo'limda esa fe'lning hozirgi zamon shakli ba'zi paytlarda aniq, ba'zan esa odatiy ish-harakatlarni ifodalaydi deyilgan va quyidagi kabi misollar yordamida tushuntirilgan:

Jetzt lese ich ein Buch. (Jetzt bin ich beim Lesen).

Gewöhnlich lese ich morgens. (Gewöhnlich bin ich morgens beim Lesen).

Semantik grammatikada mazkur munosabatlar birlashtirilgan holda tadqiq qilinadi va bunda gap paytning semantik makonlashuvi/makonlashmaganligi haqida boradi¹. Paytning makonlashuvi/makonlashmaganligini ifodalovchi til vositalari turli grammatik sathga tegishli ekanligiga qaramasdan, ularning barchasini misollar yordamida tushuntirilishi va bu amaliyot chog'ishtiruv uchun ham qulay ekanligi muhim.

Nemischa *oft, manchmal, ständig, immer mehr, jeden Abend* kabi payt ko'rsatkichlari tugallanmagan ish-harakat yoki voqea-hodisaning takrorlanishini ifodalashda qo'llanadi, masalan:

Jede Woche einmal gießt er die Blumen.

Nemis tilidagi *pflügen*, o'zbekcha *odat qilmoq* fe'llari hosil qiladigan iboralar tugallanmaganlik munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi, qiyoslang:

¹ Бондарко А. В. (отв. ред.). Теория функциональной грамматики: Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. 2-е изд. — Москва: Эдиториал УРСС, 2001. — 348 с. (Первое издание — Ленинград: «Наука», 1987).



Sie pflegte Kuchen zu backen, wenn die Kinder nach Hause kamen.

Nemis tilidagi *am/beim/im + substantivierter Infinitiv + sein* qurilmalari aktual ish-harakat yoki jarayonning davomiyligini va tugallanmaganini ifodalaydi:

Wir sind am Feiern.

Nemis tilidagi *sein (im Begriff sein, dabei sein, in etwas begriffen sein)* kabi holat fe'llari hosil qilgan qurilmalar aktual ish-harakat yoki jarayonning davomiyligini, lekin tugallanmaganini ifodalaydi:

Ich bin dabei, aus dem Haus zu gehen.

Gerade ravishi va uning o'zbek tilidagi *huddi shu damda, ayni damda, hozirgina* kabi muqobillari ham yuqorida ta'kidlangan aspektual munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadi, qarang:

Ich koche gerade.

Voqea-hodisaning qancha davom etishni belgilovchi *eine Stunde, einen Tag lang, einige Minuten, eine Weile* kabi payt ko'rsatkichlari aspektual munosabatlarni ifodalashda qo'llanadi:

Einen ganzen Monat lang weinte sie um ihn...

Wollen, müssen, sollen modal fe'llari hosil qilgan perifrazalar tugallanmagan ish-harakat ifodasi uchun qo'llanadi, masalan:

Er muss überleben.

Sintaktik qurilma ifodalagan obyektiv dalil, voqea diktum hisoblanadi. Ayrim mualliflar mantiq terminologiyasidan foydalangan holda, uni propozitsiya atamasi bilan nomlaydilar. Modus sintaktik qurilma orqali ifodalangan voqeaning borliqqa munosabati hamda so'zlovchining o'zi ifodalayotgan voqeaga munosabatini ifodalaydi. Sintaktik qurilmaning o'zgaruvchi unsurlari orkali ifodalanadigan, modusga kiruvchi ma'no sintaktik qurilmaning grammatik ma'nosi, ana shu ma'nolar va uni ifodalovchi shakllar tizimi gapning grammatik kategoriyalari hisoblanadi. Gapning grammatik kategoriyalari ham grammatik ma'no (so'roq, buyruk, darak, inkor va boshqalar) va grammatik shakl birligidan iborat.

Nemis tilini chet tili sifatida o'qitishda aspektuallik kategoriyasi ifodasi uchun qanday til vositalari qo'llanishini, ularning o'ziga xos (kognitiv) xususiyatlarini chuqur o'rganish – til kompetensiyasiga erishishning samarali yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadi.

References:

1. Baumgärtner, K. u.a: Kommunikation und Sprache, Weinheim, Basel 1974.
2. Бондарко А. В. (отв. ред.). Теория функциональной грамматики: Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Таксис. 2-е изд. — Москва: Эдиториал УРСС, 2001. — 348 с. (Первое издание — Ленинград: «Наука», 1987).
3. Бондарко А. В. Грамматическая категория и контекст.- Ленинград: Наука. Ленинградское отделение, 1971.С. 54.
4. Ehrich V. Die temporale Festlegung lokaler Referenz // Raumkonzepte in Verstehenprozessen: Interdisziplinäre Beiträge zu Sprache und Raum / Hrsg. Von C.Habel, Herweg M.und Rehkemper K.- Tübingen& Niemeyer 1989. S. 1-7; Meibauer 1995: Kostrowa 1998.S.22.